

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2025 yil

**MILLIY TARBIYA ASOSLARI
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 –	Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 –	Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110100 –	Pedagogika

Qo‘qon -2025

Fan/mavzu kodi MTA1106		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim(soat)	Jami yuklama (soat)
	Milliy tarbiya asoslari	74		106	180
2.	I Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad - milliy tarbiya – ijtimoiy-tarixiy, qonuniy va ob‘ektiv jarayon sifatida, mustaqil O‘zbekistonda milliy tarbiya g‘oyasining tiklanishi va rivojlanishi, milliy tarbiya tizimini joriy qilinishining nazariy va amaliy yo‘nalishlari haqida, milliy qadriyatlar mazmuni, milliy va ommaviy madaniyat tushunchalariga oid bilim berish. Fanning vazifasi - talabalarni milliy tarbiyaning tarixi va nazariyasi, davlat siyosatining milliy tarbiyaning mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini o‘rganish, milliy tarbiyaning metodik asoslari bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, milliy qadriyatlar asosida shakllangan milliy va ommaviy madaniyatning mohiyatidan foydalanish metodlari bilan tanishadilar hamda amalda sinab ko‘radilar. Fanning asosiy manbalari: 1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. –T.: 2020 y 2. Ismoilova G. Milliy tarbiya asoslari. – T.: Ilm ziyo zakovat, 2023 y. 3. Ismoilova G. Milliy tarbiya asoslari. – T.: Grand kondor print, 2024 y. 4. Ismoilova G. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish metodikasi. – T.: Ilm ziyo zakovat, 2023 y. 5. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent. Ma’naviyat. 2007y 6. Xolmatova Z. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Artpress, 2023 y. Fanning dasturi Qozon federal universiteti dasturi asosida tayyorlangan. O‘qituvchi va talabalarning samarali birgalikdagi faoliyati. Amaliy topshiriqlarni amalga oshirish maqsad va vazifalarni, ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan pedagogik muloqot mazmunini aniqlash, shaxsiy yondashuv asosida turli shakllarda pedagogik jarayon sub'ektlarining o'zaro ta'sirini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Individual xususiyatlarni hisobga olgan holda, shuningdek, o'quv jarayoni sub'ektlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish, o‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalarini, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muammolarini psixologik-pedagogik diagnostika qilish metodikasini o‘zlashtirish uchun asos bo‘ladi. pedagogik o'zaro ta'sirda konstruktiv nizolarni hal qilish ko'nikmalari o‘rganiladi. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:				

Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi –

O'qituvchining pedagogik faoliyat jarayonida o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni malakali tashkil eta olishi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Pedagogik o'zaro ta'siri pedagogikaning asosiy tushunchalaridan biri va ta'limning ilmiy tamoyilidir. Nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi orqali erishgan yutuqlari yoki ta'lim sifatini yaxshilashga talabalariga nafaqat o'quv va tarbiyaviy faoliyatning shaxsiy ahamiyatini ta'minlash to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi, balki amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi, o'quv vazifalari majmuasini o'z ichiga oladi, ularning izchil va sifatli bajarilishi fanning asosiy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – Ushbu fanni o'qitayotgan Qozon federal universiteti Top 300 universitetlar standartlariga ega.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – Kursni to'liqroq o'zlashtirish uchun mahalliy va xorijiy mualliflarning aloqa bo'yicha klassik va zamonaviy asarlariga alohida e'tibor berish, mustaqil ish uchun topshiriqlarni bajarish va yakuniy test topshiriqlarini bajarish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish tavsiya etiladi.

II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu. “Milliy tarbiya asoslari” fan sifatida

“Milliy tarbiya asoslari” fanining maqsad va vazifalari. “Milliy tarbiya ijtimoiy tarixiy, qonuniy va ob'ektiv jarayon sifatida. “Milliy tarbiya asoslari” fanining ilmiy tadqiqot metodlari va boshqa fanlar bilan aloqasi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasining mazmuni va dolzarbligi, Tarbiya fani Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasi asosida tatbiq etilishi, maqsad va vazifalari.

2-Mavzu: Milliy tarbiya fanining me'yoriy-huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 avgustdagi videoselektor yigilishidagi ta'lim tizimiga Tarbiya fanini joriy etish to'g'risidagi taklifi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6 iyul 2020 yildagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi VM-422-son qarorining mazmun-mohiyati va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida tarbiyaga oid kontseptual g'oyalar.

3-Mavzu. Milliy tarbiya g'oyasining tarixiy pedagogik asoslari

O'zbek milliy tarbiyasi tajribasining tarixiy-pedagogik tavsifi. O'zbekona tarbiyaning turli qirralari adiblar talqinida. A.Avloniy, A.Fitrat, M.Bexbudiy, I.Ibrat asarlarida tarbiya masalalari. Sobiq Sho'ro davrida milliy tarbiya masalasiga munosabat. Milliy tarbiyaning tiklanishi va rivojlanishi.

4-Mavzu. Uchinchi renessans davrida milliy tarbiya g'oyasining takomillashuvi.

Tarbiyaning globallashuv jarayonidagi vazifalari. Globallashuvning shaxs hayoti va faoliyatdagi o'rni. Jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm,

terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik, yolg'onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuvchilik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatni kamayishi, ommaviy madaniyatga ko'r-ko'rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, farzand tarbiyasida ma'suliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar va ularni bartaraf etishdagi asosiy vazifalar.

5-Mavzu: Zamonaviy sharoitda tarbiyaviy jarayonlar va uni tashkil etish yo'llari.

Tarbiya takomillashuvining zarurligi va keskinlashayotgan global ziddiyatlar bilan bog'liqligi. Ma'naviyatning globallashtirish jarayonlariga ziddiyatli xarakteri. Globallashtirish jarayonida tarbiyaga salbiy ta'sir etuvchi omillar va uning oldini olish usul va vositalari. "Ommaviy madaniyat" globallashtirishga qarshi kurash vositalari va mexanizimi.

6-Mavzu: Uzluksiz ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy kamolotiga oid fazilatlarni shakllantirish

Shaxs ma'naviy kamoloti tushunchasi. Axloqiylik, mehnatsevarlik, vijdon uyg'oqligi, insonparvarlik kabi fazilatlar. Ta'lim tizimi bosqichlarida shakllantiriladigan shaxs fazilatlarining asosiy komponentlari va ular shakllanishining tarbiyaga bevosita bog'liqligi.

7-Mavzu: Zamonaviy tarbiyada media.

Zamonaviy tarbiyada media. Zamonaviy shaxs hayotida medianing o'rni. Media turlari va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Mediasavodxonlik va mediatarbiya. Media va axborot savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Mediataxdid, mediaxavfsizlik. Axborotlashgan jamiyatda mediatarbiya.

8-Mavzu: Ma'naviy-ma'rifiy ishlarining takomillashuvi tarbiyaning asosi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ma'naviyat, ma'rifat, mafkura va din masalalarining o'zaro uyg'unligi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlari. Ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi.

9-Mavzu. Tarbiya fani asosida talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish.

O'zbek oilalarida tarbiyaviy an'analar. Tabiat va inson. Tabiatga munosabat madaniyati. Xalqimizning ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati. Tejamkorlik yaxshi fazilat. Tejamkorlik - koni boylik. Gaz, elektr energiyasi va ichimlik suvi milliy boyligimiz. Ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik.

10-Mavzu. Tarbiya fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodi namunalari, tarixiy bitiklar, sharq allomalari merosi, diniy va badiiy adabiyotlardan foydalanish.

Xalq og'zaki ijodi turlari. Tarbiya fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish. Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari. Sharq allomalari merosida inson falsafasi masalalari. Dars jarayonlarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.

11-Mavzu: Islom dinida ma'naviyat va shaxs ma'naviy qiyofasining talqini.

Din – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi. Islom dini. Qur'oni Karim. Hadislarda inson ma'naviyati. IX asr hadis ilmining "Oltin asri". Imom Buxoriy "Muhaddislar sultoni". Abu Iso Muhammad ibn Muso at-Termiziy ma'naviy merosi. "Sunani Termiziy" asari. Undagi insof, adolat, insonparvarlik g'oyalari va ahloqiy-ma'naviy masalalar. Tasavvuf ma'naviyati, mazmun – mohiyati. Tasavvufdagi komil inson va tarbiya haqidagi g'oyalar. Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarida ma'naviyat. Diniy aqidaparastlik ma'naviy qashshoqlikning ko'rinishi va uning zararli oqibatlari. Mustaqillik davrida diniy qadriyatlarning tiklanishi va ularning komil inson tarbiyasidagi ahamiyati.

12-Mavzu. Ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari.

Ta'limning milliy tarbiyaviy mazmuni. Milliy tarbiya mazmunining qadriyatlar, an'analarda aks etishi. Tarbiya darsliklarida milliy tarbiya g'oyalarining singdirilganligi.

13-Mavzu. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya.

Maktabgacha ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati va mazmuni. MTM tarbiyalanuvchilarini milliy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari. "Tarbiya" fanini interfaol usul va metodlar asosida o'qitish. "Tarbiya" fani orqali o'quvchilarda orzu nimaligini anglay olish, maqsadini aniq o'ylay olishi va amalga oshirishga intilishi, tanqidiy tafakkurga ega bo'lishi, mas'uliyatni anglashi, axloq qoidalariga ega bo'lishi, o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishda yosh-fiziologik xususiyatlarini inobatga olish zaruriyati. Bu borada xorijiy tajribalarni amaliyotga keng joriy etish masalalari.

14-Mavzu. Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiya

Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati va mazmuni. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni milliy tarbiyalashning shakl va yo'llari. Tarbiya fanini o'qitishda ijtimoiy fanlardagi so'nggi yangiliklar va yutuqlardan foydalanish. Innovatsion o'qitilishiga doyr tajribalar. Tarbiya fani darslarini tashkil etish va o'tkazishga doyr tavsiyalar.

15-Mavzu: Yuksak ma'naviyatli pedagog kadrlarni shakllantirish: muammo va yechimlar.

Yuksak ma'naviyatli va mafkuraviy kompetentli pedagog kadrlarni shakllantirish - bugungi davr talabi. Pedagog kadrlarning ma'naviyati xamda uning mafkuraviy kompetentligining asosiy belgilari. Pedagogning o'z faoliyatini tanqidiy taxlil eta olishi. Xalq Ta'limi tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari (Etika kodeksi). Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda "Oila, mahalla va Ta'lim muassasasi hamkorligi" Konsepsiyasining ahamiyati. Ta'lim muassasasi faoliyatida oila va oila hamkorligi masalalari.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlarida talabalarda nazariy o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi.

"Milliy tarbiya asoslari" fani bo'yicha seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya qilinadi:

1. “Milliy tarbiya asoslari” fan sifatida.
2. Milliy tarbiya g‘oyasining tarixiy pedagogik asoslari.
3. Milliy tarbiyaning mazmuni va uni takomillashtirish.
4. Tarbiyaning globallashtirish jarayonlaridagi vazifalari.
5. “Ommaviy madaniyat” globallashtirishga qarshi kurash vositalari
6. Milliy tarbiya yo‘nalishlari. Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruxida tarbiyalash.
7. Zamonaviy tarbiyada media. Mediataxdid, mediavaxfsizlik.
8. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarining takomillashtirish tarbiyaning asosi.
9. Tarbiya fani asosida talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish.
10. Tarbiya fanini o‘qitishda xalq og‘zaki ijodi namunalari, tarixiy bitiklar, sharq allomalari merosi, diniy va badiiy adabiyotlardan foydalanish.
11. Islom dinida ma‘naviyat va shaxs ma‘naviy qiyofasining talqini
12. Ta‘lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari.
13. Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda milliy tarbiya.
14. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida milliy tarbiya.
15. “Oila, maxalla va Ta‘lim muassasasi hamkorligi” Konsepsiyasining ahamiyati.

IV. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Jahon tarbiyaviy konsepsiyalari namunalarining qiyosiy-pedagogik tahlili.
 2. O‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlarini tarbiya jarayoniga tadqiq etish.
 3. Maktab, oila va mahallaning milliy tarbiyani amalga oshirishdagi hamkorlik ishlari
 4. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida milliy tarbiyani amalga oshirish.
 5. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabida milliy tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari.
 6. Boshlang‘ich ta‘lim “Tarbiya” darsliklarining tahlili
 7. Umumiy o‘rta ta‘lim 5-11 sinf “Tarbiya” darsliklarining tahlili
- Amaliy mashg‘ulotlarda mavzularga oid keyslar yechish, esselar tayyorlash, ijodiy ishlar yozish kabi ishlar bajariladi.

V. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruhviy o‘quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;

- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.)

yaratish;

- multimediali taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;

ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

“Milliy tarbiya asoslari” fani bo'yicha tavsia etiladigan mustaqil ta'lim mavzulari:

- 1.“Milliy tarbiya asoslari” fanining predmeti, fan sifatidagi taraqqiyoti, bosqichlari.
- 2.Milliy tarbiya asoslari fanning boshqa fanlar bilan aloqasi.
- 3.Milliy tarbiya asoslari fanining ilmiy tadqiqot metodlari.
- 4.Milliy tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va zamonaviylashtirish.
- 5.Mamlakatning tarbiyaviy tizimi, uning mustaqillik, milliy taraqqiyot yo'li.
- 6.Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralari.
- 7.Milliy tarbiya avloddan-avlodga o'tuvchi milliy madaniyat vositasi ekanligi.
- 8.Milliy tarbiyaning metodologik asoslari.
- 9.Sotsiolog olimlarining tarbiya sohasida olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari.
- 10.Turli zamon va makonlarda yaratilgan tarbiya konsepsiyalarining mazmuni.
- 11.Turli zamon va makonlarda yaratilgan tarbiya konsepsiyalari.
- 12.O'zbekistonda “Milliy maktab” muammosi.
- 13.Ta'limning milliy yo'naltirilganligi.
- 14.O'quvchilarning o'z milliy tarixiga, madaniyatiga munosabatlari.
- 15.Millatlararo muloqot madaniyati.
- 16.O'zbek oilasi – milliy dunyoqarash manbai sifatida.
- 17.O'zbekiston maktablarida ta'lim va tarbiyani takomillashtirish zaruriyati.
- 18.Bo'lajak o'qituvchilarni milliy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash.
- 19.O'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil qilish.
- 20.O'zbekona tarbiya tamoyillari.
- 21.Milliy tarbiya tushunchasi.
- 22.Milliy tarbiya ijtimoiy zaruriyat sifatida.
- 23.Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralari.
- 24.Milliy tarbiya vositalari.
- 25.Milliy tarbiyaning falsafiy, metodologik asoslari.
- 26.Islom dini va o'zbekona tarbiya.

27. O'zbekona tarbiyaning mazmuni.
28. Milliy tarbiya va ijtimoiylashuv.
29. Oila, mahalla va maktabda milliy tarbiyani amalga oshirish.
30. Milliy tarbiyaning baynalminal tarbiya bilan uyg'unligi.
31. Ilm-ma'rifat tarbiyani shakllantirish me'zoni sifatida.
32. Innovatsiyalar - ijtimoiy ehtiyojlarga yechim sifatida.
33. Ruhiy poklikning ma'naviy asoslari.
34. Axloqiy mas'ullik va javobgarlikning ijtimoiy mohiyati.
35. Halollik va fidoiylikning axloq va ma'naviyat tizimidagi o'rni.
36. Bag'rikenglikning turli ko'rinishlari.
37. O'zbekistonda ma'naviy yangilanish jarayonining axloqiy mohiyati.
38. Javobgarlikning axloqiy mohiyati.
39. Mas'uliyat va mas'uliyatsizlik.
40. Islom dinida ruhiy poklik tushunchasiga munosabat.
41. Ezgulik, erkinlik va erkin tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.
42. Saxovat tushunchasining umuminsoniy va milliy axloqiy talqini.
43. Vatanparvarlik - qadriyat kategoriyasi sifatida va uning mazmun-mohiyati.
44. Fidoiylik tushunchasining mazmun-mohiyati.
45. Insonparvarlik qadriyat sifatida.
46. Tabiat va inson. Tabiatga munosabat madaniyati.
47. O'zbek oilalarida tabiat bilan bog'liq an'analar.
48. Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.
49. Tejamkorlik - koni boylik. Gaz, elektr energiyasi va ichimlik suvi milliy boyligimiz.
50. Dars jarayonlarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.
51. Qur'oni Karim va Hadislarda inson ma'naviyati masalalarining yoritilishi.
52. Diniy aqidaparastlik ma'naviy qashshoqlikning ko'rinishi va uning zararli oqibatlari.
53. Tasavvufdagi komil inson va tarbiya haqidagi g'oyalar.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular talabalar tomonidan ishlanmalar tayyorlash va uni taqdimot qilish uchun tavsiya etiladi. Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning muayyan o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

Darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o'rganish asosida mediatexnologik taqdimotlar tayyorlash.

3. VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilish kerak:

- Fanni o'zlashtirish natijasida milliy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish haqida ***tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)***
- Tarbiya jarayonida talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning fanga nisbatan qiziqishini uyg'otish, tarbiya jarayonining qonuniyatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)***.

	• Ijodkor, barkamol shaxsni shakllantiruvchi tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishning o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda auditoriya bilan pedagogik nutqiy kompetensiyani tashkil etish, yangi imkoniyatlar yarata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • ijodiy ishlar yaratish
5.	Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. –T.: 2020 y 2. Ismoilova G. Milliy tarbiya asoslari. – T.: Ilm ziyo zakovat, 2023 y. 3. Ismoilova G. Milliy tarbiya asoslari. – T.: Grand kondor print, 2024 y. 4. Ismoilova G. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish metodikasi. – T.: Ilm ziyo zakovat, 2023 y. 5. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent. Ma'naviyat. 2007y 6. Xolmatova Z. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Artpress, 2023 y. Qo'shimcha adabiyotlar 7. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. - 464 b. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son Farmoni. 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF - 6108 - son Farmoni. 10. Uzlaksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi. 2019 yil 31 dekabr. O'zbekiston Respublikasi VM Qarori №1059, Toshkent sh. Axborot manbaalari 11. https://gov.uz/oz/edu/ –O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti. 12. http://www.uzedu.uz/uz – O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sayti.

	13. https://gov.uz/oz – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.
	14. https://kpfu.ru/pdf/portal/oop/41739.pdf - Qozon federal universiteti
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Bayonnoma №1 29.08. 2025yil.
8.	Fan/modul uchun mas’ul va dastur muallifi: G.A.Ismoilova – Qo‘qon DU “Pedagogika” kafedrası dotsenti, PhD.
9.	Taqrizchilar: N.Sh.Erkaboyeva - Qo‘qonDU “Pedagogika” kafedrası professori, p.f.d. K.B.Muxammadiyev - Toshkent davlat transport universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası professori, p.f.d.